

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 128 (1189), 2024-yil 29-iyun, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



XALQIMIZ QO'LGA KIRITAYOTGAN ULKAN YUTUQLARDA YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING KATTA HISSASI BOR

Yoshlar kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qaroriga muvofiq, azm-u shijoati, bilim va salohiyati bilan mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shayotgan bir guruh faol yoshlar "Kelajak bunyodkori" medali hamda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi.



28-iyun kuni Ko'ksaroyda ana shu mukofotlarni topshirish marosimi bo'ldi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida yigit-qizlarni Yoshlar kuni bilan tabriklab, mehru e'tiborini izhor qildi.

Mamlakatimiz yoshlarining yutuqlari, maqsad va rejalar bilan yaqindan tanishib, beqiyos kuch va ilhom olaman. Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha qanday katta imkoniyatlarga ega ekanimizni his etib, xursand bo'laman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bugun hayotning har bir jabhasida — davlat boshqaruvida, iqtisodiyotda, ilm va ta'limda, sport va madaniyatda yoshlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy Majlis palatalari qoshida

Yoshlar Parlamenti ish olib bormoqda. Yurtimizdagi har bir tashkilotda yoshlar ishlari bo'yicha maslahatchi faoliyat ko'rsatmoqda.

Davlat va jamiyat zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan, jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar bilan qudratli. Shu bois, ta'lim tizimi tubdan rivojlantirilmoqda. Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar, oliy o'quv yurtlari yetuk kadrlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. IT-park, kreativ park va texnoparklarda, madaniyat va sport maskanlarida o'g'il-qizlar sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanib, qobiliyatini charxlammoqda.

Bu sharoitlardan unumli foydalangan yoshlar ilm-fan, sport, madaniyat, san'at

va boshqa sohalarda katta-katta yutuqlarga erishib, Yangi O'zbekistonni jahonga tarannum etmoqda.

Birgina o'tgan o'quv yilida 55 nafar o'quvchimiz matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda 8 ta oltin, 15 ta kumush, 32 ta bronza medallarini qo'lga kiritgan.

Madaniyat va san'at bo'yicha nufuzli xalqaro tanlovlarda esa yoshlarimizdan 383 nafari bosh sovrinni, 1 ming 400 ga yaqini 1-o'rinni egallagan.

Oxirgi 2 yilda sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 900 tadan ziyod oltin, 550 dan ortiq kumush, 731 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi. Yaqinda Qatarida o'tgan futbol

bo'yicha Osiyo kubogida terma jamoamiz O'zbekiston tarixida ilk bor Olimpiya yo'llanmasini olishga muvaffaq bo'ldi.

— Sizlar mana shunday natijalaringiz bilan yangi tarix yaratapsizlar. Ishonchim komil, xalqimiz qo'lga kiritayotgan ulkan yutuqlar bilan birga, bu natijalar Yangi O'zbekiston tarixiga, Uchinchi Renessans tarixiga aylanadi, — deya ta'kidladi Prezident.

Davlatimizning yoshlarga oid siyosati xalqaro miqyosda tan olinmoqda. Masalan, o'tgan yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko'ra, O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e'tirof etildi. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash,

ularni davlat va jamiyat boshqaruvida, muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga keng jalb etish bo'yicha 60 dan ziyod tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan ma'qullandi.

Shu kunlarda azim Samarqand shahrida Butunjahon yoshlar festivali bo'lib o'tmoqda. Bu ham xalqaro e'tirofning yana bir ifodasi ekanini ta'kidladi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarga davlat mukofotlarini topshirdi.

— Bugungi yutuqlaringiz — uzoq yo'lning boshlanishi. Davlat sharoit yaratishi, kimdur yordam berishi mumkin. Lekin kelajagingiz faqat o'z qo'lingizda. Bu yo'lda barcha

yoshlarimizni qo'llab-quvvatlab, orzu-intilishlarida muvaffaqiyatlar tilayman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mukofotlanganlar yuksak ishonch va e'tibor, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi, o'qish va ishlarda yanada katta natijalarga erishib, xalqimiz ishonchini oqlashini ta'kidlashdi.

Tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ziyolilar, ota-onalar ishtirok etdi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

PREZIDENT YOSHLAR BILAN MULOQOT QILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilish avvalida ishlar samaradorligi ko'rib chiqildi. Oxirgi yetti yilda yoshlarga oid 100 dan ziyod qonun va qarorlar qabul qilinib, 200 dan ortiq imtiyozlar berilgani qayd etildi.

Birgina ta'lim kreditidan 151 ming yoshlar foydalangan. Ehtiyojmand oiladan bo'lgan yana 110 ming talabaning shartnoma to'lovi to'lab berilgan.

"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali AQSH va Buyuk Britaniyaning eng nufuzli universitetlarini 50 nafar yigit-qiz bitirdi. Bugungi kunda ularda o'qiyotgan vatandoshlarimiz 200 dan oshdi. Umuman, 110 ming yoshlarimiz xorijda tahsil olyapti.

Prezident maktabining baholash tizimi 500 ta maktabda joriy qilinishi natijasida bir yilning o'zida bilimlarni o'zlashtirish 53 foizdan 60 foizga oshdi. Bu tizim yangi o'quv yilidan yana mingta maktabda joriy qilinadi.

Bu yil maktablarni 14 mingdan ziyod o'quvchi oltin va kumush medallar bilan bitirdi. "Katta beshlik" fan olimpiadalarda qo'lga kiritilgan medallar oxirgi to'rt yilda 2 karra ko'paydi.

"Oilaviy tadbirkorlik" dasturlari doirasida berilgan kredit evaziga 1 million yosh ish bilan ta'minlandi. 205 ta "Yoshlar sanoat zonasida" 1 ming 200 ta loyiha ishga tushirildi. Hozirda biznesdagi aylanma mablag'ini million dollardan oshirgan 1,5 ming nafar yosh tadbirkor bor.

Davlatimiz rahbari yoshlarda bilim va yangi g'oyalarni ko'pligi, ularga sharoitlar yanada kengaytirilishini ta'kidladi. Jumladan, ular quyidagilardir:

Mamlakatimiz jadal rivojlanishi uchun "to'rtinchi sanoat" kasblari juda muhim. Shu maqsadda yoshlarning fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, muhandislik, matematika bilan bog'liq kasblarga qiziqishini oshirish uchun yangi tizim bo'ladi. Oliy o'quv yurtlari qoshidagi jami 73 ta akademik litseyda tajriba tarzida "Xalqaro bakalavriat" va "A-Level" dasturi joriy qilinadi. Bu dasturlar asosida sertifikat olgan o'quvchilar o'sha oliygohga imtihonsiz, kontrakt asosida qabul qilinadi.

"SAT" testida 75 foizdan yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar mamlakatimiz universitetlariga ham grantga qabul qilinadi.

Nogironligi bo'lgan yoshlarga chet tili bo'yicha milliy sertifikat olishda kompyuterda imtihon topshirish sharoiti yaratiladi.

Yoshlarimiz xalqaro olimpiadalarning nazariy qismida har doim yuqori natijalarga erishsa-da, laboratoriya mashqlarini bajarishda pastroq ball olyapti. Shu bois, endi Prezident ta'lim muassasalar agentligi qoshida Olimpiadalarga tayyorlash markazi ochilib, maxsus laboratoriyalar bilan jihozlanadi. Xalqaro olimpiadada qatnashuvchi terma jamoa reja asosida ushbu markazda tayyorgarlik ko'radi. Buning uchun har bir fan bo'yicha malakali olim va xorijiy mutaxassislar jalb qilinadi.

Oliy ta'limning birinchi va ikkinchi kurslaridagi fanlar texnikumlar bilan uyg'unlashadi. Texnikumda yaxshi o'qigan yoshlarga xalqaro klassifikatorning tegishli darajasiga mos keluvchi diplom beriladi. Ularga oliygohni ikkinchi yoki uchinchi kursdan o'qishni kontrakt asosida davom ettirish imkoniyati beriladi. Kasbi bo'yicha malaka darajasi va ikki yillik staji bor yoshlar korxonaga tavsiyasi bilan kontrakt asosida oliy ta'limga qabul qilinadi.

Endi oliy o'quv yurti, vazirlik va korxonalariga tegishli laboratoriyalarning yagona onlayn platformasi yaratiladi. Bunday ilmiy markazlar Toshkent texnika, Samarqand va Urganch davlat universitetlarida ham tashkil qilinadi. Yosh olimlar tadqiqotlari uchun kerak bo'lgan uskuna, butlovchi qism va kimyoviy vositalar bojan ozod qilinadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasida o'zini o'zi band qilgan yoshlar 50 mingdan oshdi. Qo'shilgan qiymat yaratib, xizmatlarni eksport qilayotgan bunday yoshlar uchun katta imkoniyatlar ochib beriladi.

Xususan, 1-avgustdan boshlab, bu sohada o'zini o'zi band qilgan yoshlarga IT-park rezidenti maqomi beriladi. Ular uch yil muddatga barcha soliqlardan ozod qilinadi. IT-park tomonidan ularga tibbiyot, sport va ofisdan foydalanishi uchun "ijtimoiy karta" taqdim etiladi.

Davomi 2-betda

O'ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYALIK KOMPANIYALAR RAHBARLARI BILAN UCHRASHUV O'TKAZDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-iyun kuni Turkiyaning "Cengiz Holding" kompaniyasi raisi Mehmet Jengiz va "Kalyon Holding" kompaniyasi raisi Jamal Kalyonju boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, shu jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimizning yaqinda Anqaraga tashrifi davomida bo'lib o'tgan O'zbekiston — Turkiya Ishbilarmonlar kengashi yig'ilishining yakunlari mamnuniyat bilan

qayd etildi. Erishilgan kelishuvlar ijrosini jadalloshtirish zarurligi ta'kidlandi.

Kompaniyalar tomonidan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish rejalarini muhokama qilindi.

Yo'lnifratuzilmasini modernizatsiya qilish va qurish, "yashil" energetika quvvatlarini barpo etish, qo'shma geologik tadqiqotlar o'tkazish va istiqbolli konlarni o'zlashtirish loyihalari shular jumlasidan.

Ta'kidlash joizki, "Cengiz Holding" ishtirokida O'zbekistonda ikkita loyiha muvaffaqiyatli yakunlandi — Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida umumiy quvvati 460 megavattli zamonaviy elektr stansiyalar ishga tushirildi. Bundan tashqari, Jizzax viloyatida quvvati 500 megavattidan ziyod bo'lgan yana bir elektr stansiya qurilishi davom etmoqda.

O'ZA

BUYUK O'ZBEK YO'LI

DUNYO MATLABI uning tafakkuri o'zgarmoqda

Dunyo o'z tamaddunining yangi bosqichiga o'tmoqda. Hayot shiddati hech birimizni tinch qo'yayotgani yo'q. Bugungi zamon ruhi fikran teranlik, ma'naviy yuksaklik va e'tiqodda sobitlikni talab qilayotgani ham bor gap.

Aslida, bu uch muhim matlab kishilik jamiyatiga hamisha oydinlik bag'ishlab kelgan. Ammo taraqqiyot shiddati va tabiatning o'zgarayotgan ruhi oldimizga yangi-yangi vazifalar qo'ymoqda. Shunday sharoitda inson o'zini isloh qilishi kerak

bo'ladi. Ya'ni har birimizning oldimizda bitta savol turadi: davr shiddatiga munosib bo'lish uchun nima qilishimiz zarur?

Davomi 3-betda

Mulohaza

KRIPTOVALYUTA:

YOSHLARGA SHAROIT YETARLIMI?



Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Hozir ko'cha-ko'ycha ko'pchilikning telefon ekranini bosib turib, tangachalar yig'ayotganiga duch kelyapmiz. Bu o'yinlar, ayniqsa, yoshlar orasida ancha ommalashdi. Boz ustiga, aynan shu o'yinlar orqali topilgan pullar sabab javobgarlikka tortilayotganlar haqidagi xabarlarni ham o'qiyapmiz. Xo'sh, shunday o'yinlarning bu qadar ommalashishiga sabab nima? Ularning yoshlarimiz uchun qanchalik foyda yoki zarari bor?

Gap shundaki, asosan, telegram platformasida o'ynaladigan mazkur o'yinlar asoschilari yig'algan tangachalarni muayyan tartib asosida kriptovalyutalarga almashirishni va'da bergan. O'z o'rnida, bu turdagi valyutani maxsus birjalarda sotish mumkin. Qisqacha aytganda, hech qanday xarajat qilmay, muayyan miqdordagi pulga ega bo'lish istagi dunyo bo'ylab millionlab odamlarni shu o'yinlarga qiziqtirib qo'ygan. Dastlabki o'yinlardan biri "Notcoin"ning nufuzli kriptobirjalarda sotuvga chiqarilishi va narxi keskin o'sishi bu qiziqishni karrasiga oshirib yubordi.

Kriptovalyuta nima?

Kriptovalyuta — raqamli valyuta turi. Uning ichki hisob birliklari markazlashtirilgan to'lov tizimi tomonidan ta'minlanadi va to'liq avtomatik rejimda ishlaydi. Kriptovalyutaning o'zi hech qanday maxsus moddiy yoki elektron shaklga ega emas. Kriptovalyuta atamasi ilk bor 2011-yilda Forbes jurnalida Bitcoin tizimi haqida maqola chop etilgandan keyin keng qo'llanila boshlandi.

Bitcoin kriptovalyutalarning birinchi hisoblanadi. Bugun u umumiy bozorning 50 foizdan ortig'ini egallagan. Hozir mavjud kriptovalyutalarning aniq sonini aytishning imkoniyati yo'q. Sababi, ularni yaratish oson. Xuddi shuningdek, yo'qolishi ham tez. Shuning uchun ko'pchilik muayyan maqsadli loyihalar asosidagi kriptovalyutalarga sarmoya kiritishni afzal biladi. Chunki kriptovalyuta sohasida

yo'qotilgan mablag'ni qaytarib olishning iloji yo'q. Aynan shu omil tufayli ko'pchilik kriptovalyutalarni butunlay tavakkalchilik asosidagi soha, deb hisoblaydi. Biroq kriptovalyutaga kelajak puli sifatida qarovchilar ham yildan yilga ko'payib bormoqda. Chunki uni to'g'ridan to'g'ri, hech qanday vositachilarsiz sotib olish yoki sotish mumkin. Bu esa aksar investorlar tomonidan an'anaviy banklarning aralashuvidan hamda ortiqcha nazoratdan ozod bo'lish yo'li sifatida qaralmoqda. Yanada tushunarli qilib aytganda, kriptovalyutalarning aniq nazoratchisi yo'q. CoinMarketCap ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda kriptovalyutalarning umumiy bozor qiymati 2,35 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Bu degani, dunyo bo'ylab shuncha miqdordagi mablag' markazlashtirilgan ravishda saqlanmoqda hamda savdo qilinmoqda. Endi savol tug'iladi — O'zbekistonda ham kriptovalyuta savdosi bilan shug'ullanish

mumkinmi? Ha, mumkin. Biroq qonunchilikda belgilangan normalar asosida. O'zbekistonda kriptovalyutalar aylanmasi, kapital bozori, sug'urta, elektron tijorat, loteraya tashkil etish va bukmekerlik faoliyati sohaslarini tartibga solish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat tashkiloti Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisoblanadi. 2022-yil 29-dekabr kuni agentlikning rasmiy veb-saytida 2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslari kriptovalyutani sotib olish, sotish yoki ayirboshlash bo'yicha operatsiyalarni faqat milliy xizmatlar provayderlari orqali O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 3-iyulda "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptovalyutalar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartibda amalga oshirish imkonligi haqida xabar e'lon qilingan edi. Ya'ni O'zbekiston fuqarolari faqatgina mazkur agentlik tomonidan litsenziyalangan

Dolzarb mavzu

Shu kunlarda minglab yoshlar oliy ta'limni tamomlab, katta hayotning navbatdagi eshigini qoqmoqda. Ularning ba'zilari talabalik davridayoq o'z ishini topgan, muayyan sohaning mutaxassisi. Ammo o'qishni tamomlagach, endi nima ish qilsam ekan, deb turganlar ham kam emas. Xo'sh, yoshlar to'rt yil o'qib-o'rganib, so'ng ish topishda nega muammoga duch keladi? Nima uchun ish beruvchilar yaxshi kadrlarga doim ehtiyoj sezadi?

BASHARIYATNING YANGI QIYOFASI

Tavakkalchilikdan ilm-fan sari odimlash fursati

Diplomi bor, ammo ish-chi?

Jamiyatda yoshlarning ish topishidagi sun'iy to'siqlardan biri ishga qabul qiluvchilarning tajriba talab qilishidir. — O'qishni tugatib, poytaxtdan ish qidirdim, — deydi xorijda ishlayotgan yurtdoshimiz Nodir Strojiddinov. — Oyligi yaxshi joylarga ish so'rab borsam, malakali o'qituvchi kerak, degan javob oldim. Ishga olishga tayyor tashkilotlarda esa maosh kam berilar ekan. Bunday holat bugun aksariyat oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini qiyaydi. Yaxshi o'qish uchun OTMga dars qoldirmay borishadi, ammo tajribasi yo'qligi uchun ishga kirolmaydi. Nima uchun shunday? — Bu yerda masalaning boshqa jihati ham bor. Misol uchun, men temir yo'l sohasi bo'yicha o'qiganman, — deydi samarqandlik Sobit Yusuf o'g'li. — Bizda har yili yoshlar uchun davlat tashkilotlari tomonidan ish o'rni ajratiladi. Aksariyat yoshlar, o'qishga

kirdik, endi davlat bizni ish bilan ta'minlaydi, degan o'y bilan o'qishga hujjat topshiradi. Ular uchun o'qishga kirishning o'zi katta g'alaba bo'lib tuyuladi. Shu yerda ko'pchilik xato qiladi. Chunki oliy ta'lim olish imkoniyati kelajakdagi rejalarining kichik qismi, xolos. Shu sababli o'qish davrining o'zida puxta bilim egallash, ishlash mumkin bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa o'rnatishi kerak. Ya'ni ish topish odamning o'ziga bog'liq. Ish beruvchining yosh kadrdan tajriba so'rashdek holatlarning sababini bilish chuqur tahlil talab etadi. Shu o'rinda masalaning yoshlarga bog'liq jihati e'tibor qaratsak.

Kelajak kasblarini tanlashga tayyormizmi?

Odamlar bugungacha aksariyat hollarda daromadi mo'l, ishi yengil kasblarni tanlagan. Bundan so'ng esa "o'lmaydigan" kasblarni tanlashga to'g'ri kelmoqda. Chunki sun'iy intellekt qo'l kuchi va aqliy

mehnat egalari munosib raqobatchi bo'lib shakllanyapti. Ilm-fan taraqqiyoti bo'yicha AQSH assotsiatsiyasining Vashingtonda o'tgan yillik yig'ilishida ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning 70 foizi robot texnikasining rivojlanishi sababli ishsiz qoladi, degan xulosaga kelgan. Ayni paytda sun'iy idrok kopirayterlik, jumalistika, o'qituvchilik, huquqshunoslik kabi aqliy mehnat talab qiladigan ishlarni ham egallab olish ehtimoli oshib bormoqda. Ha, hozircha sun'iy idrokning intellekti maktabni bitirgan o'rta yoshli odamning aqliy qobiliyatidan past. Ammo u yildan yilga takomillashirilmoqda.

Yana bir jihat bor: mutaxassislar fikricha, 2017-yildan so'ng tug'ilgan bolalarning 68 foizi qanday kasb tanlashini taxmin qilib bo'lmaydi. Sababi, ularga atalgan kelajak kasblari hali kashf qilinmagan. Bu zamon bizga boqmasa, biz zamonga boqishimiz zarurligini anglatadi. Ya'ni biz qarashlarni o'zgartirmas, tafakkurimiz orqali jahon sahnida sodir bo'layotgan yangiliklarni tahlil qilmas ekanmiz, zamondan ortda



Bu ro'yxatdan kompyuter va axborot tizimlari menejeri, fiziklar va jarrohlar, bozor tadqiqotlari tahlilchisi va marketing mutaxassislari, ilova dasturiy ta'minotini ishlab chiquvchilar, sertifikatlangan tibbiy xodim va hamshira kabilar joy olgan. E'tibor qilsangiz, bu kasblarning ko'pi yurtimizda endi rivojlana boshlagan. Aksariyat yoshlarda esa hali bu kasblarning ahamiyati u yoqda tursin, ular haqida boshlang'ich tasavvur ham shakllanmagan odamni o'ylantiradi. Demak, endi maqsad faqat o'qishga kirish bo'lishi kerak emas. Zero, hayotga real qarashni o'rganishimiz shart. Chunki miltiqni ko'targan bilan ovchi bo'lmas, dag'dag'a solgan bilan — dovchi. Bugun aksariyat davlatlar asosiy e'tibor va mablag'ni ta'limga yo'naltirish orqali tobora yaqinlashib kelayotgan inson va texnika raqobatiga mos kadrlar tayyorlash va yoshlarning yangi kasblarni egallashiga qaratilmoqda. Yurtimizda ham bu borada jiddiy o'zgarishlar bo'layotganini e'tirof etish kerak. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasida har bir fuqaroga davlat hisobidan muayyan kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 barobar oshirib, jami 1 million ishsiz fuqaroni kasb-hunarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalari ish-tirokini 30 foizga yetkazish belgilangani ham yoshlar uchun maktab davridanoq farovon kelajak asosi yaratilishiga e'tibor qaratilgan dalolat. Prezidentimizning "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga binoan mazkur yo'nalishda jiddiy o'zgarishlarga yo'l ochildi. Masalan, endi oliy ta'limga qabul qilishda mehnat bozori o'rganilib, kadrlarga ehtiyoj hisobga olinadi. Bu bitiruvchilarning ish topishda qiynalmasligiga xizmat qiladi. Chunki oliy



Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

ma'lumotli kadrlarga talab doim prognoz qilib boriladi. 2025-yil 1-mayga qadar "O'zbekiston yangi kasblar atlasini" elektron platformasi yaratiladi. Bunday o'zgarishlar kishini qovutiradi, albatta. Islohotlar natija berishi uchun esa o'zimiz ham shunga tayyor bo'lishimiz kerak. Biroq aksariyat yoshlar hali to'la anglab yetgani yo'q. Shu buni, kelajak kasblari haqida bolalarga ko'proq ma'lumot berib borish zarur. Zero, yoshlar ham, otanonalar ham kelgusida mehnat bozori qanday bo'lishini tasavvur qila olishi dardkor. Hozirgi davr yoshlariga oson emas. Ular kasb tanlashda kelajakni ko'ra olishi, so'ng shunga munosib o'qib-o'rganishi kerak. Buning uchun tafakkurimizni o'zgartirmasak bo'lmaydi. Shu kabi fikrlar xulosa chiqarishga, xulosalar esa mulohazaga undaydi. Bugun oltin baliq tutish, sehrli chiroqni orzu qilib vaqtni o'tkazish emas, eng avvalo, ilm olish, o'qiganda ham kelajakni tasavvur qilish hammamizning burchimiz.

MUTAXASSISLAR FIKRICH A 2017-YILDAN SO'NG TUG'ILGAN BOLALARNING 68 FOIZI QANDAY KASBLARNI TANLASHINI TAXMIN QILIB BO'LMAYDI. SABABI ULARGA ATALGAN KELAJAK KASBLARI HALI KASHF QILINMAGAN.

qolib, kelajak oldida hisob berolmay qolishimiz mumkin. AQSH mehnat vazirligi jahon mehnat bozorini o'rganib, kelajakda eng ko'p haq to'lanadigan 30 ta kasbni e'lon qildi.



E'tirof

AJIB TUYG'ULARNI ULASHUR



Vatan! Vatan o'zi nima? Vatan — mehribon onam, mehnatkash otam, jonkuyar momom, to'pilonchi ukam va men tanigan, men uchun qadri insonlar. Bundan tashqari, jonjon qishlog'im, maktabim va, albatta qadri uyim, men shunday tushunaman Vatanni.

Vatan — men bilganlar ichida eng muqaddas so'z. Chunki bu so'z hayotimdir! Yuragimda orzularim ko'p, go'yo bu orzular Vatan so'ziga chambarchas bog'lanib olgandek. Aslida, yuragimga bu ajib orzulami solgan ham Vatan.

Maktabga borib ilk o'rgangan she'rim ham Vatanimning madhiyasi edi. Esimda,

uni yod olib bo'lgach, tinmasdan aytib yurganim. Go'yo uni aytam, o'zimni dunyodagi eng baxtli insondek his qilardim. Balkim yuragimga orzularni o'sha baxt tuyg'usi joylagandir.

Bolaligimda momom aytib bergan etaklarda mard, jasur pahlavonlar o'z elini, yurtini zolimlardan himoya qilardi. Yurti, Vatani uchun kurashardi. U etaklarni eshitib, men ham Vatanim uchun nimadir qilgim kelardi. O'zim nima qilishni bilmasdim, "Qanaqa qilib kurashaman, kim bilan kurashaman?" deb o'ylardim.

Keyin momom yoniga yugurdirdim, dardimni aytib yordam so'rardim. Momom gaplarimni tinglab kulardi: "Bolam sen kim bilandir kurashishing shart emas, vazifang yaxshi o'qish va yaxshi inson bo'lish, shundagina kelajakda Vatanninga, elingga foydasi tegadigan inson bo'lasan", derdi. Shundan so'ng bor kuchimni o'qishga bera boshladim.

Ishonamanki, yuragimdagi orzularim bir kuni ushaladi. Momom aytib bergan etak qahramonlaridek Vatanim ravnaqiga hissa qo'shaman. Lekin hali munosib farzand bo'lishim uchun ko'p o'qishim, izlanishim,



Dilnura IBRAGIMOVA, Surxondaryo viloyati Bandixon tumanidagi 20-umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi

bu yo'lda mashaqqat chekishim kerak. Bu sinovlar meni cho'chitmaydi. Chunki meni qo'llab-quvvatlayotgan ustozlarim, yaqinlarim siymosida VATANIM bor!

Rag'bat

Taqdir taqozosi bilan juda ko'p davlatga borganman. Safarlarim davomida dunyoning eng mashhur insonlari bilan uchrashib, suhbatidan bahramand bo'lish nasib etgan. Men borgan yurtlarda o'sha mashhur insonlardan kam bo'lmay yashayotgan vatandoshlarimizni ko'rib, ko'nglim yorishgan. Bu odamlar ilmi, salohiyati va qobiliyati bilan rivojlangan davlatlarda o'z o'rnini topgan. Ularning aksariyati yoshlar.



Otabek MAHKAMOV, aktyor, huquqshunos, vloger

YOSHLARIMIZDA NAFAQAT UMID, balki entuziazam ham bo'lishi kerak

Bugun mamlakatimizdagi yangilanish jarayoni samarasi nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan yurtdoshlarimiz hayotida ham sezila boshlagan. Ayniqsa, Prezidentimizning o'tgan yili AQSHga amaliy tashrifi bilan borishi va u yerda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan uchrashgani katta voqea bo'ldi.

Samimiy uchrashuvda davlatimiz rahbari yurtimizdagi o'zgarishlar haqida gapirdi, uchrashuvga kelgan har bir vatandosh bilan alohida suhbatlashdi, ish faoliyati bilan qiziqdi, ona vatanga chorladi.

Yurt taqdiri, yoshlar kelajagi — ishonchli qo'llarda. Buni nafaqat yurtdoshlarimiz, balki rivojlangan davlatlar ekspertlari ham e'tirof etmoqda. Barchasi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati to'g'ri va xolisona yuritilayotganidan darak beradi.

"Yangi O'zbekiston" gazetasi minbaridan foydalanib, yurtimiz

yoshlariga fikrlarim va tilaklarimni yetkazmoqchiman.

Qadri yoshlar, kuch-quvvat, shijoat sizni hech qachon tark etmasin. Har doim yodda tuting: kelajak aynan sizning qo'lingizda. Munosib kelajak barpo etish uchun esa sizda qator insoniy sifatlar bo'lishi kerak. Ular haqida hindistonlik davlat arbobi Robindranat Tagor bunday degan: "Yoshlarimizda nafaqat umid, balki entuziazam ham bo'lishi kerak!"

Shu o'rinda "entuziazam" iborasiga e'tiboringizni qaratomoqchiman. Bilasizmi, bu yunoncha so'zning asl ma'nosi oliy qadriyatga yo'g'rilgan maqsadga zavq-shavq bilan intilishni ifodalaydi. Bugun O'zbekiston uchun aynan shu jihatlarda juda muhim, deb o'ylayman.

Shu o'rinda sizlarga eng katta entuziazam bilan birga omad yor bo'lishini tilab qolaman. Dunyodagi barcha bilimlarni birlashtirgan holda eng zo'r, jahon taniyidigan yetuk mutaxassislar bo'lib yetishasiz, deb umid qilaman.

Dil izhori

Bolaligimdan aktyorlikka havas qilardim. Albatta, bugungi kungacha yetib kelguncha hamma kabi hayotning muayyan dovonlaridan o'tdim. Ba'zan kabob pishirishda otamga yordam berardim. Vaqt o'tib omadimni tadbirkorlik sohasida ham sinab ko'rdim. O'sha vaqlari "paynet" ochish urfga kirgan edi. Men ham tavakkal qilib, shu ishning boshini tutdim. Ammo bu sohada ishim yurishmadi.



Bobur MANSUROV, aktyor, rejissyor, vayner

ISHONCH, MEHNAT — YUTUQLAR MANZILI

O'qishga hujjat topshirib, kirolmadim. Bu orada harbiy xizmatni o'tab, yana omadimni o'qishda sinab ko'rdim. Aktyorlik ham kasbim, undan ko'ra boshqa sohalarida omadimni sinab ko'r, deganlar ham bo'ldi. O'qishga kirdim.

Yuqoridagilarni aytib berganim boisi, yoshlardagi eng katta boylik oldinga qo'yilgan ulkan maqsadlardir. Ularni ro'yobga oshirish yo'lidagi o'siqlarni mardona yengib o'tish orqali farovon kelajakka asos solish mumkin. Maqsadlar amalga oshishi kaliti faqat va faqat ta'limga.

Oilada besh farzandimiz. Ota-onam har doim bizni o'qishga undab kelgan. Bugun hammamiz oliy ma'lumotimiz. Ta'lim olishga hech qachon kech bo'lmaydi. Onam barchamizni o'qitib, ellik yoshdan oshganidan so'ng o'qishga hujjat topshirib, oliy ma'lumoti bo'ldi.

Maqsadlarga erishish yo'lida sobitlik bilan birga, ustozlar ko'magi ham muhim o'rin tutadi. Universitetda o'qiyotganimda ilk ustozim Munavvara Abdullayeva bo'lgan. U kishi bergan ta'lim, qattiqo'llik ortidan bugun ko'plab shogirdlari yetishib chiqmoqda. Ustoz meni doim qo'llab-quvvatlab kelgan.

Bugun aksariyat yoshlar qisqa vaqtda mashhurlikka erishishni orzu qilib, maqsadidan chekinayotgani ham bor gap. Yigirma to'qqiz yoshimda ham daromadga ega emasdim. Ba'zan chet elga ishlashga ketishga ham qaror qilganman. Biroq do'stlarimning ishonchi, birgalikdagi sa'y-harakatimiz, mehnatimiz samara bera boshladi.

Yoshlar kuni bilan yurt istiqboli va vatan saodati yo'lida odimlayotgan, bugungi tinchlik va istiqbolning belbog'i bo'lgan yoshlarni tabriklayman. Ularning hayotda duch keladigan sinovlarni yengib, orzu-maqsadlar tomon dadil qadam tashlashini, qiyinchiliklarga qaramay, eng kuchli bo'lishini tilayman.

Bugun yurtimizdagi sharoitdan unumli foydalanib, mehnatdan qochmagan inson munosib va farovon hayot qurishga qodir. Muhimi, yoshlik davrida ilm olish yo'lida tinmay mehnat qilish kerak.

Shu o'rinda yoshlarga bir gapni aytmoqchiman: ulkan orzu-maqsadlar sari yuzlanishdan cho'chimang. Yaqinlashib kelayotgan kelajak, albatta, sizniki bo'ladi. Buning uchun esa mehnat va yana mehnat qilish kerak.

Nozima HABIBULLAYEVA

Chorlov

Qalamim, kel, ilhomim
Kelmoqchiga o'xshaydi.
Yurakda islohotlar,
Bo'lmoqchiga o'xshaydi.

Turtkidir suyuk dardlar,
Oying yuzida gardlar,
Yorqinlik sari battar,
To'lmoqchiga o'xshaydi.

G'am chekmoqdadir g'amlar,
Armonlar armon g'amlar,
Alamidam alamlar,
O'lmoqchiga o'xshaydi.

Zumdadur zumligimiz,
Jim bo'lsin jimligimiz.
Kimlardir kimligimiz,
Kulmoqchiga o'xshaydi.

Ishonganim Xudodir,
Va shubhasiz duodir.
Shundan yorug' sabolar,
Yelmoqchiga o'xshaydi.

Salom, xush kelgin, omad!
G'alabalar — marhamat!
Kulib boqsam menga baxt
Kulmoqchiga o'xshaydi!

Kimlardir kimligimiz,
Bilmoqchiga o'xshaydi!

Jonibek ALIJONOV

Yuragingda o'loving bo'lsin

Bugun bizga tosh otganlar
Gul-u chechak otadi bir kun.
Qo'yavering, bizni sotganlar
O'z-o'zini sotadi bir kun.

Aziz do'stim, vatanlararo
Ko'zga surtar yaloving bo'lsin.
Cho'ntagingda chaqmoqtosh emas,
Yuragingda o'loving bo'lsin.

Qachon mehnat tugar, demagil,
Guling bormi, elingni gullat.
Dangasalik qila olmas, bil
Bolalarin o'ylagan millat!

Tinmagan el yutadi bir kun,
Sinmagan el yutadi bir kun.
Qatorlarda quy turmoqqa
Ko'nmagan el yutadi bir kun.

Nafasningi cho'g' qilgin, do'stim
Sen ko'nglingni to'g' qilgin, o'stim
Buyuklikka haqqi bor bu yurt
Maqsadiga yetadi bir kun.

Sayfiddin OKANOV

Eng chiroyli uy

Eng chiroyli go'sha — bizning uy,
Oqlanmagan bo'lsa-da garchi.
Uy ichidan taraladi kuy,
She'rilarimga oq qog'oz jarchi.

Qishlog'imda o'sgan daraxtlar
Raqsqa tushar shamol kuyiga.
Bu mo'jiza ilhom varaqlar,
Tushaman men shoir ko'yiga.

Tumanimiz — qozon ichida,
Muhabbatning qaynashini ko'r.
So'zlamayman tilim uchida,
G'allaorol shevalari zo'r.

Maqtash emas niyatim, ammo
To'kib solay dilda borini.
Hech qayerda ko'rmadim aslo
Jizzaximning gulbahorini.

Muhabbatim oshar kun sayin,
Bo'y taratib to'rta tomonga.
Yurakkinam to'lib aytayin:
Men oshiqman O'zbekistonga!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 2233. 44065 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy